

“ILMIY TAFAKKUR VA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI
Qabul qilindi: 30-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 6-oktabr 2026-yil • Nashr qilindi: 14-oktabr 2026-yil

GLOBALLASHUV JARAYONIDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Dj.R. Badalov

O‘zbekiston Republikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va yelatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmt qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” deb keltirib o‘tilgan.

Tarixan mamlakatimizda istiqomat qilayotgan odamlar o‘rtasida milliy va diniy kamsitish bo‘lmagan, bugungi kunda ham bunday bo‘lmaydi. Bag‘rikenglik, milliy-yetnik bag‘rikenglik, yaqin hamkorlik, teng imkoniyatlar bilan ishtirok yetish milliy mentalitetimizning uzviy jihatlaridir. O‘zbekistonda asrlar davomida turli xalqlar ahil va do‘stona oila bo‘lib yashab, bir-birining dini, ye’tiqod tuyg‘ulari, ziyoratgohlarini hurmat qilgan, boy madaniy rang-barangligini saqlab kelgan.

Inson huquqlari va insoniy qadriyatlar kontekstida turgan tinchlik tushunchasi bugungi kunda insoniyatning yeng muhim muammolaridan biridir. Murakkab ijtimoiy-siyosiy voqealar davrida oilada ham, jamiyatda ham turli yetnik guruhlar, davlatlar, millatlar o‘rtasidagi kamsitishning barcha ko‘rinishlariga barham berish yeng muhim maqsaddir. Boshqacha aytganda, odamlar o‘rtasida tinchlik qadriyatlarini targ‘ib qilish, tinchlik madaniyatini yuksaltirishga doimo yehtiyoj bor.

Hozirgi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tomoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va yerkinligi, milliy va diniy totuvlik g‘oyalari ustivordir. Bu tamoyillarga asoslangan yezgu g‘oyalar umuminsoniy manfaatlar orzusi bo‘lgan yorug‘ kelajak uchun xizmat qiladi. Shu boisdan ham boshqa mamlakatlar kabi, bizning davlatda ham ijtimoiy-siyosiy barqarorlik taraqqiyotni ta’minlashda tinchlikparvarlik siyosatining pozitiv jihatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Uning qaror topishida yesa jamiyat rivojlanishining ma’naviy-ma’rifiy

yo‘nalishlari, turli ijtimoiy guruhlar va siyosiy kuchlarning pirovard maqsadlarini ifodalaydigan iqtisodiy, siyosiy jarayonlar katta ahamiyat kasb yetadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va buning uchun odamlarda tinchlik madaniyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi omillarni ilmiy tadqiq yetish jamiyat taraqqiyotining hozirgi davriga xos bo‘lgan xususiyatlarni yanada chuqurroq bilib olishga imkon yaratadi.

Yer yuzining turli nuqtalarida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan bugungi kunda xilma-xil ijtimoiy nizolarni keltirib chiqaruvchi notinchliklar sodir bo‘lmoqda. Ularni bartaraf qilish, ziddiyatlarning oldini olish jamiyatning tadrijiy rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti bo‘lib qolmoqda. Bu yesa, o‘z navbatida, amaldagi tinchlik va barqarorlik modellarining mohiyati, ularning ilmiy-nazariy asoslarini qiyosiy o‘rganishni taqozo yetmoqda. Shu boisdan ham ushbu masala hozirgi G‘arb olimlari, xususan, taniqli sotsiologlar va konfliktologlar R.Darendorf va A.Kozerlarning asarlari hamda ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topmoqda1. Mazkur olimlar va ularning ko‘p sonli izdoshlari «tinchlik madaniyati» tushunchasini hozirgi «insoniyat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy fenomeni» (A.Kozer) sifatida talqin yetmoqdalar. Ularning nazarida bu tushuncha odamlarning tinchlikni saqlash, uni mustahkamlash borasidagi xatti-harakati va amaliy faoliyatini belgilaydigan ma’naviy va madaniy mezonlar hamda tamoyillar majmuini ifodalaydi. Ya’ni, aynan tinchlik madaniyati yer yuzidagi totuvlik, hamkorlik hamda hamjihatlikka va oxir-oqibatda insoniyatning yagona birlik sifatida yerkin taraqqiy qilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, afsuski, bizning mamlakatimiz va sobiq ittifoq o‘rnida shakllangan mustaqil davlatlarda bu mavzu haligacha alohida ilmiy tadqiqot ob’yekti sifatida o‘rganilmagan. Shuning uchun ham bugungi kunda tinchlik g‘oyasi umuminsoniy maqsadlarni birlashtiruvchi falsafiy g‘oyaga aylanib borayotgan hozirgi sharoitda uni har taraflama tadqiq yetish dolzarb ahamiyatga yega.

Inson tabiiy munosabat va muloqotda bo‘lib, hayotini davom yettirishni istaydi, bu uning jismoniy va ma’naviy olamiga hamda yaratilishiga mos xususiyatdir. Chunki inson, olam va Yaratguvchi o‘rtasidagi tabiiy va uyg‘un munosabat insonni baxtli va osoyishta qiladi. Mavjudlikning ushbu uch sohasiga nisbatan yeng kichik salbiy narsa odamni jiddiy

bezovta qiladi va uning hayotdan zavqlanishiga to‘sqinlik qiladi. Aytish mumkinki, har bir tinchlik muzokaralari va kelishuvlari tizimga o‘z hissasini va hajmini qo‘shadi. Tinchlikni amalga oshirish turli shakl va bosqichlarda bo‘ladi. Islom shariati amaliyotiga ko‘ra, biror joyni zabt yetishdan oldin uning aholisiga Islomni qabul qilish yoki jizya to‘lashga rozi bo‘lib, tinch yo‘l bilan taslim bo‘lish taklif qilingan. Agar xalq va ma’muriyat bunga rozi bo‘lmasa, urush muqarrar yedi. Agar urushdan keyingi istilo amalga oshmasa, tomonlar o‘rtasida sulh tuziladi. Shunday qilib, tinchlik shartnomalari odatda urushdan keyin, ba’zan oldingi tinchlikni yangilash yoki uzaytirish sifatida tuzilgan. Agar urushayotgan tomonlar o‘rtasida sulh tuzilganidan keyin tinchlik tashabbusi muvaffaqiyatli bo‘lsa, muzokaralar boshlanadi, lekin shartlar teng bo‘lmasa, kuchliroq tomon urushayotgan paytda sulhga yaqinlashmasdan muzokaralarni boshlashni xohlashi mumkin.

Xulosa qilsak, tinchlik madaniyatini shakllantirishda inson omili va kuchli ijtimoiy siyosat ahamiyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: davlat ijtimoiy iste’mol fondlarini tashkil yetish va ulardan jamiyatning har bir a’zosining foydalanishini kafolatlaydigan qonunlarni qabul qilish, davlatning markazlashgan ijtimoiy sug‘urta fondini tashkil yetish, ko‘rsatilgan xizmatlar va samarali mehnatlari uchun davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar, ish haqi va pensiya minimumining davlat tomonidan kafolatlanishi, ko‘p bolali oilalarga to‘lanadigan nafaqalar, kam ta’minlangan aholi tabaqalariga moddiy yordam ko‘rsatish, bolalikdan nogiron va boshqa mehnat qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, talabalar uchun to‘lanadigan davlat stipendiyalari, ishsizlik nafaqasi, yeng muhim oziq-ovqat mahsulotlari turlarining belgilangan narxlarda sotilishini ta’minlash, ijtimoiy ahamiyatga yega bo‘lgan xizmatlar baholaridagi farqlarni byudjet hisobidan qoplash, ijtimoiy sohaning yeng muhim tarmoqlari (sog‘liqni saqlash, ta’lim, jismoniy tarbiya, sport va madaniyat) moddiy bazasini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashdir.

Ta’lim – xalqning asrlar davomida to‘plangan va saralangan yeng yaxshi tarbiya va fazilatlarini yosh avlodga o‘zlashtirish, dunyoqarashini, hayotga qarashini va shunga mos xulq-atvorni shakllantirishdir. Tarbiyaning muhim shakllaridan biri bu, avvalo, o‘z xalqiga, Vatanga muhabbatdir. Farzand tarbiyasi - bu buyuk san’at. Hamda shu masala davomi

sifatida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonning 5 – ustivor yo‘nalishi 91 – maqsadida keltirilga “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish” deb ta’kidlab o‘tilgan qismini olishimiz mumkin.

Insoniyat ming yillar davomida yashab kelmoqda, doimo o‘zgarib, rivojlanib boruvchi ongli hayotni davom yettirmoqda. Ta’lim faqat insoniyatga tegishli bo‘lgan hayot taraqqiyotining bog‘bonidir. Tarbiya keksa avlodning yeng yaxshi tajribasi, kelajak avlod muvaffaqiyati, ibrat namunasi, an’anasi, ma’naviy boyligi, milliy madaniyati yesa o‘zbek xalqining ko‘p asrlar davomida otadan farzandga o‘tib kelayotgan o‘lmas merosidir. Jamiyatimizdagi ayrim salbiy holatlar: til, din, vasvasa va aldov, qotillik va o‘g‘irlik, adolasizlik va shafqasizlik, giyohvandlik kabi illatlarning oldini olish yo‘lini izlash zarur. Buning samarali yo‘li milliy madaniyat asosidagi istiqbolli milliy tarbiyani shakllantirish zarur. Avlodlar tarbiyasi kelajak tayanchidir. Bugungi kunda o‘quvchilarining turli tartibsizliklarining oldini olish, katta va kichik o‘rtasida o‘zaro hurmat, aka-uka va opa-singillar ahilligini shakllantirishda otalarning ta’siri buzilib, kattalarning man qilmasligi ularning tarbiyasiga bolta urishdir. Tahlil qilishimizga ko‘ra, avvallari otalar o‘g‘illari bilan yurt bo‘ylab sayohat qilishgan. Asosiy vazifa bolaga boshqa oilaning buyuk ishlarini ko‘rsatish bo‘lgan yedi. Va yendi nima?! Otalar yemas. Onalar gapirgan paytlar bo‘lgan. Xalqimiz kelajagi farzand tarbiyasida yekanligini ba’zi onalar biladimi?! Tarixdan ma’lumki, inson qanchalik baxtli bo‘lsa, tarbiyasi ham shunchalik yuksak bo‘ladi.

Jamiyat qoidalarini to‘laqonli amal qilinishi uchun jamiyatda yetarlicha imkoniyat bo‘lishi zarur. Buni asosiy omillaridan biri – jamiyatda tinchlikni ta’minlashdan iborat. Insonning yeng oddiy yehtiyojlarini qondirish uchun tinchlik zarur. Tinchlik ulkan imkoniyat. Tinchlik madaniyatini o‘zimiz bilan tinchlikda bo‘lish va butun atrof-muhit va jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatishdan boshlash san’ati deb atashimiz mumkin.

Navqiron avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hukumatimizning yangi strategik dasturining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mamlakatning geografik joylashuvi va milliy-yetnik xususiyatlaridan kelib chiqib, O‘zbekistonda ta’lim sohasidagi muhim muammolardan biri xalq an’analari asosida o‘quvchilarni ajdodlar ruhida tarbiyalash

tizimini yaratish zarurati hisoblanadi. Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Vatanga muhabbat, uni hayotga tadbiq yetish yo‘llari haqida juda ko‘p fikrlar mavjud. Ta’lim g‘oyalari qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlari (Aflotun, Sitseron, Arastu va boshqalar) asarlarida o‘z ifodasini topgan. O‘zbek xalqining ko‘p asrlik an’analari, vatanparvarlik, tinchliksevarlik tarbiyasining usullardan bugungi yoshlarni tarbiyalashda oqilona foydalanish vaqti keldi. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, yosh avlodda vatanparvarlik va tinchliksevarlik tuyg‘usini singdirishning bebaho ma’naviy-axloqiy tarbiya quroli qahramonlarning qahramonlik qiyofasi va ularning o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, tarixi va badiiy adabiyotida tutgan o‘rnidir.

Shunday qilib, milliy vatanparvarlik va tinchliksevarlik tushunchalarining ta’rifi, ularning mazmuni: vatanparvarlik va tinchliksevarlikni rivojlantirish, milliy an’analarga sodiqlik va davlat ramzlariga hurmat va boshqa tarbiyaviy tushunchalar. Biz keng qamrovli izlanishlarimizda o‘qituvchilar, psixologlar, faylasuflar, olim va shoirlarning fikr-mulohazalari asosida milliy vatanparvarlik va tinchliksevarlik tushunchalarini aniqlashga intiladi. Milliy vatanparvarlik va tinchliksevarlik – shaxsning millat ichidagi olijanob fazilati, o‘z xalqiga, qoni va kelib chiqishiga, hududiga, tiliga, turmush tarzi, xulq-atvori, psixologik-yetnografik xususiyatlariga bo‘lgan muhabbatdir. Bu o‘zining tarixiy an’analari nuqtai nazaridan ham juda aniq va boshqa fazilatlar va xususiyatlar bilan bog‘liq.

Yuqorida qayd yetilgan muammolarni hal yetish yoshlar dunyoqarashining xususiyatiga bog‘liq. Yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi umumjamiyat ahamiyatidagi muhim masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Darhaqiqat, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga yega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savolllarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib yetsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va yerkin hayotning qadrini anglab yetadi”, degan

fikrlarini to‘g‘ri talqin qilib, yoshlarni ma’rifatli qilib tarbiyalashda ta’lim tizimiga alohida ye’tibor qaratish muhim vazifadir.

Tinchlik madaniyatini shakllantirishda ta’lim muassasalarining rolini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Ta’lim jamiyatning ko‘pchilik qismini, ya’ni yoshlarni qamrab oladi.

2. Yoshlar o‘zlarining munosabatlari, ye’tiqodlari, qadriyatlari va xulq-atvori repertuarini yendigina rivojlantirayotganligi sababli, jamiyatda hali ham mavjud bo‘lgan hukmron konflikt madaniyati ularga kamroq ta’sir qiladi.

3. Xalq ta’lim vazirligi o‘quv rejasini, ta’lim dasturlarini va maktab kitoblarini boshqaradi.

4. Yosh avlod maktabda berilgan ma’lumotni o‘rganganligi sababli, ular hech bo‘lmaganda bu ta’limni amalga oshirishga kirishadilar.

5. Tinchlik madaniyati bu bolalar va yoshlarda nizolarni samarali hal yetish ko‘nikmalarini va tinch jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydigan ye’tiqodlar, qadriyatlar, motivlar va xulq-atvor tendensiyalarini o‘z ichiga olgan tafakkurni rivojlantirishdir.

6. Tinchlik ta’limini maqsadlariga yerishish uchun ta’lim tizimida ba’zi tub o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak. Tinchlikni qo‘llab-quvvatlaydigan nutqlarni ishlab chiqishning o‘zi yetarli yemas. Tinchlik madaniyatini takomillashtirish asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, maktab kitoblari uchun tegishli dasturiy ta’minot, maxsus dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, ushbu ta’limni ta’minlaydigan o‘qituvchilarni tayyorlash va qo‘llab-quvvatlovchi maktab muhitini yaratish kabi faol amaliyotlar talab yetiladi.